INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

PROSODIK VOSITALAR: URG'U (AKSENTEMA), INTONATSIYA (MELODIKA) VA RITMNING FONETIK TAHLILI

Ravshanova Nozima Mansurjon qizi
JDPU, Filologiya fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi
nozimaravshanova07@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada prosodik vositalar — urg'u, intonatsiya va ritmning fonetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ularning nutq jarayonidagi o'rni, ma'no ifodalashdagi ahamiyati hamda kommunikativ vazifalari yoritiladi. Shuningdek, prosodik birliklarning o'zaro bog'liqligi va nutqning ta'sirchanligini oshirishdagi roli ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Kalit so'zlar: prosodiya, prosodik vositalar, urg'u, aksentema, intonatsiya, melodika, ritm, nutq ohangdorligi, fonetik tahlil, fonetika, fonologiya, birliklar, nutq tempi, kommunikativ ma'no, nutq strukturasi, ohang tizimi, talaffuz xususiyatlari.

Аннотация: В данной статье анализируются фонетические особенности просодических средств — ударения, интонации и ритма. Рассматривается их роль в процессе речи, значение в передаче смысла и коммуникативные функции. Также научно обосновывается взаимосвязь просодических единиц и их влияние на выразительность речи.

Ключевые слова: просодия, просодические средства, ударение, акцентема, интонация, мелодика, ритм, интонационная выразительность речи, фонетический анализ, фонетика, фонология, единицы, темп речи, коммуникативное значение, структура речи, интонационная система, особенности произношения.

Annotation: This article analyzes the phonetic features of prosodic elements such as stress, intonation, and rhythm. It examines their role in speech, their importance in conveying meaning, and their communicative functions. The interrelation of prosodic units and their impact on speech expressiveness are also scientifically substantiated.

Keywords: prosody, prosodic features, stress, accenteme, intonation, melody, rhythm, speech intonation, phonetic analysis, phonetics, phonology, units, speech tempo, communicative meaning, speech structure, intonation system, pronunciation features.

Til insonlar o'rtasidagi muloqotni ta'minlovchi eng muhim, betakror va murakkab vosita bo'lib, uning fonetik tizimi nutqning nafaqat tovush tomonini, balki uning ohangdorlik, ta'sirchanlik va ifodaviylik xususiyatlarini ham o'z ichiga oladi. Prosodik vositalar — urg'u, intonatsiya va ritm — nutqning mazmuniy, emotsional hamda ekspressiv jihatdan boy, rang-barang va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu vositalar yordamida faqatgina axborot yetkazilmaydi, balki so'zlovchining ichki kechinmalari, subyektiv munosabati, ruhiy holati, kayfiyati hamda kommunikativ niyati ham aniq va ravshan ifodalanadi.

Shu jihatdan qaralganda, prosodik vositalar nutqning semantik va pragmatik qatlamlarini ochib beruvchi muhim lingvistik omil sifatida namoyon bo'ladi. Ular nutqning ohangini belgilash orqali gapning ma'nosini aniqlashtiradi, tinglovchiga ta'sir kuchini oshiradi hamda kommunikatsiya jarayonini yanada samarali va mazmunli qiladi. Shu sababli prosodik vositalarni fonetik nuqtai nazardan chuqur, tizimli va ilmiy asosda o'rganish tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

1) URG'U (aksentema). Urg'u so'z tarkibidagi bo'g'inlardan birining boshqasiga nisbatan kuchliroq ovoz bilan aytilishi yoki gaplardagi ayrim bo'laklarning, nutq oqimidagi ayrim frazalarning maxsus ohang bilan ta'kidlanishidir. Urg'u muayyan til fonetik-fonologik tizimining supersegment birligi

sanaladi. Tilning qaysi sathidagi birliklarga aloqador bo‘lishiga ko‘ra urg‘uning quyidagi tiplari o‘zaro farqlanadi: 1) so‘z urg‘usi; 2) sintagma urg‘usi; 3) ayiruv (ta’kidlov) urg‘usi.

So’z urg’usi bevosita so‘zga aloqador bo‘lgan, so‘z tarkibidagi bo‘g‘inlardan biriga tushadigan urg‘udir. Fonetik tabiatiga, tushadigan o‘rniga va harakat qilish belgisiga ko‘ra so‘z urg‘usi har xil bo‘ladi.

1. Fonetik tabiatiga ko‘ra so‘z urg‘usi dinamik, kvantitativ, tipik ottenkali va tonik (musiqiy) xarakterlarda bo‘lishi mumkin:

a) dinamik urg‘u (zarb urg‘usi). Urg‘uning bu turi so‘z tarkibidagi bo‘g‘inlardan birining, ayniqsa, undagi unli tovushning kuchli zarb bilan talaffuz qilinishiga asoslanadi. Kuchli zarb va baland ovoz dinamik urg‘uning akustik belgisi bo‘lsa, shu ovozni yuzaga keltiruvchi nutq a’zolari muskullarining kuchlanishi (tortilishi, taranglashishi) bunday urg‘uning fiziologik belgisi sanaladi. Dinamik urg‘uli bo‘g‘inda kuchli zarbning bo‘lishi uning shu so‘z tarkibidagi boshqa bo‘g‘inlardan ajralib tushishini ta’minlaydi;

b) kvantitativ urg‘u. Urg‘uning bu turi bo‘g‘indagi unli tovushning cho‘ziq (davomli) talaffuz etilishi bilan xarakterlanadi;

d) tipik ottenkali urg‘u (sifat urg‘usi). Urg‘uning bu turi bo‘g‘indagi unlilarning o‘ziga xos tipik ottenkasi (sifat belgisi) saqlangan bo‘lishi bilan xarakterlanadi, shu belgisiga ko‘ra u urg‘usiz bo‘g‘indagi unlining notipik ottenkasidan farqlanadi;

e) tonik (musiqiy) urg‘u. Urg‘uning bu turini olgan bo‘g‘in ovoz tonining o‘zgarishi bilan urg‘usiz bo‘g‘inlardan farq qiladi. Demak, tonik urg‘uda un parchalari chastotasi tezlashadi, ovoz toni esa balandlashadi.

Ko‘pchilik tillarning so‘z urg‘usida yuqoridagi fonetik (fizik-akustik) belgilardan bir nechtasi birga ishtirok etadi, ammo ulardan bittasi, ba’zan, ikkitasi shu til uchun yetakchi belgi hisoblanadi. Masalan, rus tilidagi so‘z urg‘usida tonik (musiqiy) urg‘u belgisi yo‘q, qolgan belgilarning barchasi bor: cho‘ziqlik mavjud, bo‘g‘indagi unlining asosiy sifat (akustik) belgilari saqlangan, zarb ham ishtirok etadi. Quyidagi misollarni qiyoslab buni yaqqol anglab olish mumkin: a) oltin (o‘zb.) va karantin (rus.), ovsin (o‘zb.) va apelsin (rus.) so‘zlarining barchasida oxirgi bo‘g‘in urg‘ulidir, barcha urg‘uli bo‘g‘inlarda «i» unlisi qatnashgan, ammo ruscha karantin, apelsin so‘zlaridagi «i» unlisi o‘zbekcha oltin, ovsin so‘zlaridagi «i» dan cho‘ziqroq talaffuz etilmoqda. Bunday tafovutni mavzu (o‘zb.) va meduza (rus.), mangu (o‘zb.) va mangusta (rus.) so‘zlarining urg‘uli bo‘g‘inlaridagi «u» unlisi qiyosida ham ko‘ramiz. Rus tili fonetistlarining ta’kidlashicha, ruscha unli fonemalarning urg‘uli bo‘g‘indagi cho‘ziqlik darajasi urg‘usiz bo‘g‘indan bir yarim barobar ortiqdir [1;226] ; b) город (им. падеж, ед. число) – города (им. падеж, мн. число), вода (им. ед. число) – воды (им.падеж, мн. число) - воды (род.падеж, ед.число). Keltirilgan so’zlarning barcha grammtik shakllarida lab-lab, o‘rta keng «o» unlisi qatnashgan, ammo u o‘zining ana shu sifat belgilarini (lab-lab, o‘rta keng «o» uchun tipik ottenkalarni) faqat urg‘uli bo‘g‘inda saqlagan, urg‘usiz bo‘g‘inlarda esa bu belgilar o‘zgarib, «o» unlisi qisqa «a» (lablanmagan, quyi keng unli) tarzida talaffuz qilinmoqda: гарада, вада, вады kabi. Unli fonemaning asosiy (tipik) ottenkasi namoyon bo‘lishi uchun so‘z urg‘usining qanday ahamiyati borligini shu misollar tahlilidan anglab olish mumkin. Shuning uchun ham so‘z urg‘usining fonetik tabiatini baholashda rus tilshunoslari birinchi o‘ringa sifat belgilarini (unli fonemadagi asosiy ottenkalarning saqlanish darajasini), ikkinchi o‘ringa cho‘ziqlik belgisini va, nihoyat, uchinchi o‘ringa zarb belgisini qo‘yadilar.

O‘zbek tilida ham musiqiy urg‘u yo‘q, ammo unda cho‘ziqlik belgisi va zarb bor. Bu belgilar urg‘uli bo‘g‘inni shu so‘zdagi urg‘usiz bo‘g‘inlardan ajratish imkonini beradi. Bunda shuni ham ta’kidlash kerakki, so‘z urg‘usining cho‘ziqlik darajasi rus va o‘zbek tillarida har xil emas: rus tilidagi so‘z urg‘usining cho‘ziqlik belgisi o‘zbek tilidagidan ko‘proq darajada seziladi. Buni yuqorida oltin va karantin, ovsin va apelsin so‘zlari qiyosida ham ko‘rib o‘tdik. Demak, o‘zbek tilidagi so‘z urg‘usida zarb birinchi o‘rinda turadi, shunga ko‘ra uni dinamik urg‘u deb baholash maqsadga muvofiqdir.

Musiqiy (tonik, melodik) urg‘u yapon, xitoy, koreys tillariga xosdir. Urg‘uning bu turi boshqa fonetik belgilar, xususan, zarb urg‘usi bilan aralash holda shved, norveg, serb, xorvat va litva tillarida ham uchraydi.

2. O‘rniga ko‘ra so‘z urg‘usi ikki xil bo‘ladi: bog‘langan urg‘u va erkin urg‘u:

a) bog‘langan urg‘uli tillarda urg‘u so‘zdagi biror bo‘g‘inga doimiy bog‘langan bo‘ladi. Masalan, turkiy tillarda urg‘u so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. Bu xususiyat o‘zbek tiliga ham xos: kitob, daraxt, bola, ota, shahar kabi. Vengr va chex tillarida so‘z urg‘usi birinchi bo‘g‘inga, polyak tilida esa so‘zning oxiridan bitta oldingi bo‘g‘inga tushadi. Bunday xususiyat yuqorida keltirilgan tillarning urg‘u tizimiga xos doimiy va asosiy belgilardir;

b) erkin urg‘uli tillarda urg‘u so‘zning turli bo‘g‘inlariga tushadi. Rus tili ana shunday erkin urg‘uli tillar tipiga kiradi. Unda urg‘u so‘zning birinchi bo‘g‘iniga (магний, завуч), ikkinchi, uchinchi bo‘g‘inlariga (оратор, бактерия, одуванчик, бараholка) va oxirgi bo‘g‘iniga (бандероль, пейзаж) tushishi mumkin.

Erkin urg‘uli tillarda urg‘uning o‘rni so‘z ma’nolarini farqlash funksiyasini (fonologik vazifani) ham bajaradi, ana shu funksiyada u aksentema hisoblanadi: замок (qulf) va замок (qal’a, qasr, saroy, qo’rg’on), парить (bug’lamoq) – парить (parvoz qilmoq) kabi. Bog‘langan urg‘uli tillarda bu holat juda kam uchraydi: rus tilidan o‘zlashgan so‘z bilan o‘zbek tili so‘zlari o‘rtasida shunday munosabat paydo bo‘lganda (atlas va atlas kabi), sifatlar ravishga ko‘chganda (yangi va yangi kabi) urg‘uning o‘rni ma’no farqlash xususiyatiga ega bo‘lishi mumkin, ammo bu xususiyat bog‘langan urg‘uli tillar uchun yetakchi va doimiy belgi hisoblanmaydi.

Harakat qilish belgisiga ko‘ra so‘z urg‘usi ko‘chadigan va ko‘chmaydigan turlarga bo‘linadi:

A) ko‘chadigan urg‘u muayyan tildagi so‘zlarda, ayniqsa, ularning turli grammatik shakllarida bir bo‘g‘indan boshqa bo‘g‘inga o‘tib turadi, demak, harakatda bo‘ladi. Bu xususiyat rus tilida ko‘proq uchraydi. Masalan: загнать – загнан – загонять; задать – задал – задала; рана – ранение kabi. Rus tilidagi urg‘uning turli o‘rinlarga ko‘chishi hatto bir so‘zning o‘zida ham uchraydi: докрасна – докрасна, залиты – залиты, казаки – казаки, иначе – иначе, загиб - загиб kabi. Bu xususiyat rus tilidagi erkin urg‘uning harakatchanlik belgisidir. Bunday belgi (harakat qilish, ko’chish) o‘zbek tilidagi bog‘langan urg‘uda ham uchraydi. Masalan: temir – temirchi – temirchilik kabi. Demak, so‘z urg‘usining harakat qilish, ko‘chish belgisi erkin urg‘uli tillarda ham, bog‘langan urg‘uli tillarda ham bor, ammo ulardan birida (masalan, rus tilida) ko‘chish turli yo‘nalishda – oldingi bo‘g‘indan keyingi bo‘g‘inga yoki, aksincha, keyingi bo‘g‘indan oldingi bo‘g‘inlarga qarab bo‘ladi. Masalan: трава (urg’u so’zning oxirgi bo’g’inida) видно (urg’u birinchi bo’g’inda) – видать (urg’u oxirgi bo’g’inga ko’chgan) kabi. O‘zbek tilidagi ko‘chish esa asosan bir yo‘nalishda sodir bo‘ladi: urg‘u o‘zak oxiridan qo‘shimchalarga tomon harakat qiladi. Masalan: shahar – shaharlik – shaharliklar kabi. Demak, o’zbek tilidagi so’z urg’usining harakat qilishi bu tildagi urg’uning oxirgi bo’g’inga bog’langanlik belgisiga xilof emas, aksincha, u ayni shu me’yor talabi asosida oxirgi bo’g’inga ko’chmoqda. O’zbek tilida so’z urg’usining oldingi bo’g’inga qarab ko’chishi juda kam uchraydi: yangi (yangi uy) va yangi (yangi kelib-ketdi) kabi. Bulardan tashqari, so’z ma’nolari kuchaytirilganda, bu ma’nolarga uslubiy bo’yoq qo’shish zarurati bo’lganda yuzaga keltiriladigan geminatsiya (bir xil undoshlarning qavatlanishi) hodisasida ham urg’uning oldingi bo’g’inlarga ko’chirilishi kuzatiladi: maza qilmoq – mazza qilmoq, yashamagur – yashshamagur kabi. Bunday paytlarda urg’u fonostilistik vositaga aylanadi;

B) Ko’chmaydigan urg’u so’z tarkibidagi bitta bo’g’inga bog’langan bo’ib, u boshqa bo’g’inlarga o’tmaydi: rus tilidagi завод, народ, работать so’zlarining turlanishi va tuslanishida bu hodisa kuzatiladi: народ – народы – народов – народами - для народа; работать – работаю – работаешь – работает – работают – проработай - проработали kabi. O’zbek tilida bu xususiyat ayrim olmoshlarning turlanishida kuzatiladi: hamma – hammani – hammaning – hammaga – hammada – hammadan; barcha – barchani – barchaning – barchaga – barchada – barchadan kabi.

O’zbek tilidagi qo’shma va juft so’zlarda urg’u ikki va undan ortiq bo’lishi ham mumkin. Bunday paytlarda oxirgi bo’g’indagi zarb kuchliroq bo’ladi va asosiy urg’u sanaladi, qolgan urg’ular ikkinchi darajali hisoblanadi: kaltakesak, temirbeton, gultojixo‘roz, aka-uka, qozon-tovoq kabi.

Bunday ikkinchi darajali urg‘ular rus tilida ham uchraydi: железо бетон, само произвольность, тёмно-синий kabi.

So‘z urg‘usining til va nutqdagi roli: a) so‘zning fonetik qobig‘ini bir butun (kompleks) holatda ushlab turuvchi markaz bo‘ladi; b) nutq oqimida so‘zni boshqa so‘zdan ajratib olishga yordam beradi; d) so‘z urg‘usining harakatchan turi so‘zlarning leksik va grammatik ma’nolarini farqlashi ham mumkin; e) nutqda fonostilistik vosita bo‘la oladi. Keyingi ikki holat urg‘uning fonologik va aksentologik xususiyatlari sanaladi. [2;86,87]

Gap urg’usi yoki logik urg’u

Ovozni kuchaytirish yoki ko‘tarish yordamida gap tarkibidagi biror-bir so‘zni ajratib talaffuz etiladi. Ana shu gapda ajratib talaffuz etish hodisasini gap urg‘usi yoki logik urg‘u deb ataymiz.

Ana shu logik urg‘u tufayli gap turli xil ma’noga ega bo‘ladi. Logik urg‘u yordamida mantiqiy tomondan muhim va butun e’tiborni qaratish kerak bo‘lgan so‘z ajratib talaffuz etiladi. Logik urg‘u gapdagi har bir so‘zga, hatto u yordamchi so‘z turkumiga oid bo‘lsa ham tushishi mumkin. Logik urg‘uning ifodalanishi turli tillarda turlichadir. Masalan, rus tilida urg‘u tushgan so‘zdagi so‘z urg‘usi yana ham kuchliroq talaffuz qilinadi;

Fransuz tilida logik urg‘u olgan so‘zning birinchi bo‘g‘ini so‘z urg‘usi oladi. O‘zbek tilida logik urg‘u olgan so‘z kesimdan oldingi o‘ringa ko‘chiriladi. Masalan:

Men maktabga bugun bordim (kecha emas, bugun).
Men bugun maktabga bordim. (do‘konga emas, maktabga)
Bugun maktabga men bordim. (do‘stim emas, men).

Nutq jarayonida ovozimiz ko‘tarilib yoki pasayib, nutqqa ohang bag‘ishlaydi. Nutqning ohangdorligi intonatsiya deb ataladi. Gap ohangi turli vazifalarni bajaradi.

Masalan, uning eng muhim vazifalaridan biri sintaktik funksiyasi hisoblanadi. Bunda ohang yordamida biz tasdiq, savol, hayajon kabilarni ifodalaymiz. Intonatsiya yordamida biz so‘z birikmasi gapga tegishli yoki tugallanmagan gapning bir qismini, aniqlashimiz mumkin. [3;56]

Urg’uning tabiatini, tur va tiplarini hamda vazifasini esa fonetikaning aksentologiya (lot.accentus – urg’u; logos – ta’limot) bo’limi o’rganadi.

Shuningdek, urg‘u nutqda emotsional-ekspressivlikni oshiruvchi fonostilistik vosita sifatida ham xizmat qiladi. Shu jihatdan, urg‘uni nafaqat fonetik, balki fonologik va aksentologik nuqtai nazardan o‘rganish tilshunoslikda muhim ahamiyatni kasb etadi. Umuman olganda, urg‘u nutqning aniqligi, ravonligi va ta’sirchanligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

2)Intonatsiya (Melodika). Intonatsiya lisoniy faktor sifatida alohida lingvistik ahamiyatga ega, chunki aynan u tufayli nutqda o‘z ifodasini topayotgan sintaktik birliklar turli ma’nolarda jilolanadi. Intonatsiya til sistemasida o‘ziga xos mavqega ega bo‘lib, o‘z tarkibiga nutqning barcha supersegment birliklarini qamrab oladi. Bular quyidagilar: akustik sathda asosiy ovoz chastotasining o‘zgarishiga olib keluvchi tovush paychalari tebranish chastotasining o‘zgarishi. Bu komponent frazada tonning harakatini anglatib, balandlikning o‘zgarishi sifatida qabul qilinadi va melodika deb yuritiladi; tovushlarning cho'zilishiga olib keluvchi artikulyasiya tezligining o'zgarishi. Bu nutq tempidir. Shu bilan birga, bu komponentni ko'p holatlarda nutqning davriy birlashmasi (organizatsiyasi) deb ham yuritiladi; tovush intensivligining o'zgarishiga olib keluvchi artikulyasion harakatlar kuchining o'zgarishi. Bu balandlik; nutq jarayonida fonasiyaning to'xtalishi. Bu pauza sifatida qabul qilinadi; urg'uning barcha turlari; ovoz tembri. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, tilshunoslarning intonasiyani tashkil etuvchi komponentlar haqidagi qarashlari bir xil emas.

Xususan, L.V. Bondarko intonasiyani tashkil etuvchi komponentlar sifatida melodika, temp, intensivlik va pauzani ajratadi. M.I. Matusevich esa melodikani, urg'uning barcha turlarining, pauzani va ovoz tembrini intonasiyaning tarkibiy qismlari deb baholaydi.

Shu bilan birgalikda, intonasion komponentlarning nutq jarayonidagi mavqei masalasi ham tortishuvlidir.

Rus intonasiyasining o'ziga xos jihatlarini yoritar ekan, M.I. Matusevich intonasiyani tashkil etuvchi komponentlar ichida melodika eng asosiysi, etakchisi ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha,

melodika mazmun (semantika) va sintaksis bilan zich aloqada bo'lib, har bir tilda o'ziga xos tarzda uning melodik strukturasini tashkil etgani holda, u subyektiv, erkin bo'lishi mumkin emas. Shu bilan birgalikda, melodika har bir tilning grammatik strukturasiga mos bo'lishi lozim; so'zlovchida (tinglovchida ham) o'z tili melodikasining muayyan modellari mavjud bo'ladi. Bularni bilmasdan turib so'zlovchilar bir-birlarini, ayniqsa, bildirilayotgan jumlalarning nozik qirralarini tushunmasligi mumkin. Melodikaning subyektivligi haqida esa faqat uning cheklangan miqdorda variantlanishi mumkinligini e'tiborga olgan holatdardagina gapirish mumkin. Masalan, bir matnning turli xil intonasion interpretatsiyasi mavjud. Shunda ham so'zlovchi tilda mavjud bo'lgan intonasion modellardan ularning semantik-sintaktik strukturasiga mos ravishda foydalanadi. Buni sintaktik strukturasi bir xil, lekin intonasiya yordamida farq qiluvchi darak va so'roq gaplar misolida ko'rish mumkin.

L.V. Bondarko ham intonatsiya tarkibida melodika alohida o'ringa ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, jumlaning intonasion shakllanishida uni tashkil etuvchi turli komponentlarning roli turlichadir. Asosiy og'irlik melodika zimmasiga, ya'ni asosiy ton chastotasining o'zgarishiga tushadi. Shu jihatdan jumlaning fonetik xarakteristikasini ifodalovchi intonatsiya terminining ton tushunchasi bilan bog'liqligi ham bejiz emas.

N.I. Jinkin nutqiy intonatsiyaning xususiyatlarini musiqiy intonatsiyaga qiyoslagan holda o‘rganar ekan, nutqiy intonatsiyaning boy va rang-barangligini hamda uning ma’no ifodalash imkoniyatlarining kengligini e’tirof etadi va intonatsiyaning o‘ziga xos jihatlarini namoyon etuvchi hamda uning nutq jarayonidagi funksiyasini reallashtiruvchi asosiy komponentlari urg‘u va pauza ekanligini ta’kidlaydi. Uning qayd etishicha, intonatsiya faqat eshitish orqali ta’riflanadigan bo‘lsa, unda ikki hodisani — ovozning ko‘tarilishi va pasayishini kuzatish mumkin. Bu ko‘zlanayotgan natijaning qashshoqligidan darak beradi. Aslida intonatsiyaning ma’no qirralari boy va rang-barangdir. Intonatsiyani uning asosiy dinamik komponenti (urg‘u) va cho‘ziqligi (pauza) asosida aniqlash maqsadga muvofiqdir. Chunki bu tayanch nuqtalarning o‘zgarishi jumla mazmunini o‘zgartirishi yoki umuman ma’nosizlikka olib kelishi mumkin. Masalan, agar Два дня ему казались новы (ikki kun unga yangi tuyuldi) jumlasidagi ikki kunni unga yangi tuyuldi komponenti bilan bog‘laydigan bo‘lsak, u holda yangilik kunga tegishli bo‘ladi. Aslida esa she’rda boshqa mazmun kuzatiladi: Два дня // ему казались новы уединённые поля / прохлада сумрачной дубравы / журчанье тихого ручья. Bundan ko'rinadiki, kun yangi emas, balki dalalar, salqinlik va jilg'aning shivirlashi yangi edi. Agar ushbu jumlani tashkil etgan turli komponentlarni, xususan, ikki kunni pauza yordamida ajratib kunni unga bilan bog'lasak, bunday holatda manosizlik yuzaga keladi.

Ko'rinadiki, N.I.Jinkin intonasiyani tashkil etuvchi komponentlar ichida nutq jarayonida jumlaning mazmuniy qirralarini ochib berishda urg'u hamda pauzaning roli katta ekanligini e'tirof etadi. Buni shunday izohlaydi: «Nutqda so'zlarni birlashtirish va ajratish masalasi melodik variasiyalarga nisbatan muhim va asosiydir. ...Nutqning instrumental yozuvi va uning tahlili natijalarining ko'rsatishicha, nutqiy ma'no ottenkalarining turli-tuman bo'lishini ta'minlovchi vositalar – bu dinamiklik va cho'ziqlikdir (davriylik). Tovushlar, bo'g'inlar, so'zlar va sintagmalar cho'ziqligining yoki so'zlar oralig'idagi masofaning minimal o'zgaruvi ham nutq ifodaviyligida o'z aksini ko'rsatadi. Shuning uchun nutqning aynan davriy-dinamik xususiyati uning o'ziga xos va xarakterli tomonidir».

Intonatsiya komponentlarining qay biri muhim yoki nomuhimligini aniqlash masalasi antik davrdagi analogistlar va anomalistlarning tortishuvlarini eslatadi. Shuni ta'kidlash lozimki, intonasiya komponentlari o'zaro dialektik aloqada bo'lib, ular biri ikkinchisini taqozo etadi. Jumla mazmunini ifodalashda, so'zlovchining maqsadini yetkazib berishda urg'uning ham, ovoz toni va tembrining ham, pauzaning hamda melodikaning ham roli birdek ahamiyatlidir. Shu bilan birga, har bir tilning fonetik strukturasi va imkoniyatlaridan kelib chiqib, intonasion vositalarning jumla qurilishidagi vazifasi o'zaro nisbatlanishi mumkin. Lekin shunda ham ular o'zaro bog'lanishda bo'lib, biri ikkinchisining funktsiyalashuviga yordam beradi. Masalan, melodikaning xususiyatlarini urg'u va pauzasiz tasavvur etish mumkin emas. Bular esa, o'z navbatida ovoz balandligi va tempi bilan bog'liqdir. Ushbu

komponentlar yig'indisi esa umumiy ovoz tembrini hosil qilib, bularning nutqiy reallashuvi intonasiyaning muayyan bir turini yuzaga chiqaradi. [4;92,93]

2)RITM. ‘’Ritm’’ so’zi tartibga solingan, to’g’ri uyushtirilgan harakatni bildiradi. Bunday harakatning tashkillashtirish vositasi sifatida metric aksentlar yordam beradi. Til insoniyatning eng muhim ijtimoiy hodisalaridan biri bo‘lib, u kishilar o‘rtasidagi muloqotni ta’minlaydi, fikr almashish, axborot uzatish va hissiy munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Tilning samarali faoliyat ko‘rsatishi uning turli sathlari — leksik, grammatik va fonetik tizimlarning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liqdir. Ayniqsa, nutqning fonetik tomonida muhim o‘rin tutuvchi prosodic vositalar — urg‘u, intonatsiya va ritm nutqning nafaqat tashkiliy, balki mazmuniy va emotsional jihatdan mukammalligini ta’minlaydi.

Shu jihatdan ritm nutqning ajralmas tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ritm tovushlar, bo‘g‘inlar va urg‘ularning ma’lum tartibda takrorlanishi va almashinuvi asosida shakllanib, nutqqa izchillik, tartiblilik hamda ohangdorlik bag‘ishlaydi. U nutq oqimining ichki strukturaviy tashkilotchisi bo‘lib, tinglovchiga axborotni qabul qilishni yengillashtiradi, nutqni ravon va tushunarli qiladi. Ritmning mavjudligi nutqni sun’iylikdan xoli etib, tabiiylik va ifodaviylikni ta’minlaydi. Ritm ayniqsa og‘zaki nutqda muhim rol o‘ynaydi. Chunki real kommunikativ jarayonda nutqning tezligi, pauzalar, urg‘ularning joylashuvi va takrorlanish xususiyatlari bevosita ritm orqali tartibga solinadi. Bu esa nutqning mantiqiy bo‘linishini, fikrlarning izchil bayon qilinishini hamda asosiy ma’no markazlarining ajratilishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, ritm nutqda emotsional-ekspressivlikni kuchaytirib, so‘zlovchining kayfiyati, munosabati va hissiyotlarini ifodalashga xizmat qiladi.

Badiiy adabiyotda ritmning o‘rni yanada muhimroqdir. She’riy matnlarda ritm asosiy badiiy vositalardan biri sifatida namoyon bo‘lib, obrazlilikni kuchaytiradi, matnga musiqiylik va estetik joziba bag‘ishlaydi. Nasriy matnlarda ham ritm yashirin shaklda mavjud bo‘lib, gaplar tuzilishi, pauzalar va intonatsion vositalar orqali ifodalanadi. Shu bois ritmni nafaqat fonetik, balki stilistik nuqtai nazardan ham o‘rganish muhim hisoblanadi. O‘zbek tilida ritm urg‘u va intonatsiya bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Urg‘u bo‘g‘inlar orasida kuchli va kuchsiz birliklarni ajratib bersa, intonatsiya nutqning umumiy ohangini belgilaydi, ritm esa ana shu unsurlarni muayyan tartibga soladi. Natijada nutqning yaxlit prosodik tizimi yuzaga keladi. Bu tizim tilning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi hamda nutqning samaradorligini oshiradi.

Zamonaviy tilshunoslikda ritm masalasi fonetika va fonologiya doirasida keng o‘rganilmoqda. Xususan, ritmning nutqdagi funksional xususiyatlari, uning semantik va stilistik imkoniyatlari, shuningdek, turli tillarda namoyon bo‘lish xususiyatlarini tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ritmni chuqur o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, u nutq madaniyatini oshirish, to‘g‘ri va ta’sirchan so‘zlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi

Xulosa qilib aytganda, prosodik vositalar — urg‘u, intonatsiya va ritm — nutqning fonetik tizimida muhim o‘rin egallab, uning nafaqat tashkiliy, balki mazmuniy va emotsional jihatdan mukammalligini ta’minlaydi. Ushbu vositalar o‘zaro uzviy bog‘langan holda nutqning ohangdorligi, ravonligi va ta’sirchanligini yuzaga keltiradi hamda fikrning aniq va tushunarli ifodalanishiga xizmat qiladi. Urg‘u so‘zning fonetik yaxlitligini ta’minlab, ma’no farqlashda muhim rol o‘ynasa, intonatsiya nutqning umumiy ohangini belgilaydi va gapning kommunikativ turini aniqlashda asosiy vosita hisoblanadi. Ritm esa nutqni tartibga solib, uning izchilligini va tabiiy oqimini ta’minlaydi. Shu jihatdan, prosodik vositalar nutqni strukturaviy jihatdan tashkil etuvchi hamda uni emotsional-ekspressiv jihatdan boyituvchi muhim omillardir. Shuningdek, prosodik vositalarning fonologik va aksentologik xususiyatlarini o‘rganish tilshunoslikda muhim ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib, ularning nutq jarayonidagi funksional imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish zamonaviy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Umuman olganda, prosodik vositalar nutq madaniyatini shakllantirish, to‘g‘ri va ta’sirchan so‘zlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi hamda tilning kommunikativ salohiyatini to‘liq namoyon etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. М.И. Матусевич. Современный русский язык. Фонетика. – М.: «Просвещение», 1976, с. 226;
2. Ra’no Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova ‘’Hozirgi o’zbek adabiy tili’’ – 2009;
3. I.Yo’ldoshev, O’.Sharipova ‘’Tilshunoslik asoslari’’;
4. Aytbayev Dilshodxo’ja Temirbayevich (maqola) ‘’Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar’’ (2023-yil N-3);
5. Shoabdurahmonov.Sh. Fonetika. O’zbek tili fonetikasiga doir ayrim masalalar. – Toshkent,1953; O’zbek tili sonorlari. Toshkent -1980.